



## 2019 yil yanvar oyida Farg`ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### **RAQAMLAR:**

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **1 288,8 mldr.so`mni**, sanoat ishlab chiqarish indeki **103,0%** ni tashkil etdi
- Iste`mol tovarlari ishlab chiqarishning o`sish sur`ati – **9,1 %**
- Iste`mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi – **25,3%**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **18,8%**
- Faoliyat ko`rsatayotgan sanoat korxonalari soni-**6472** birlikni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 1288,8 mldr.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 103,0 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 112,2 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoat – 104,1%, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 83,3 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning - 75,8 % ga o'sishi hisoblanadi.

**2019 yilning yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda, jami sanoatdagi ulushi.**



**Tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.**



Tog`-kon sanoatida tog`-kon sanoati bilan bog`liq boshqa faoliyat turi hajmi o’tgan yilning tegishli davriga nisbatan – 12,2 % ga oshganligini kuzatish mumkin.

Tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,4 mlrd.so’mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni tashkil etdi.



### **Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).**

2019 yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1221,5 mlrd.so`mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,8 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog`ining hajmi -0,4 mlrd.so`mni, (ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-0,03%), o`rta yuqori texnologiyali – 182,5 mlrd.so`mni, (14,2%), o`rta quyi texnologiyali – 431,8 mlrd.so`mni, (33,5%) va quyi texnologiyali – 606,8 mlrd.so`mni, (47,1%) tashkil etdi.

### **Yanvar oyida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo`yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**



**Yuqori texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi- 0,4 mlrd.so`m, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-0,03%**



**O`rta yuqori texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi - 182,5 mlrd.so`m, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-14,2%**



**O`rta quyi texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi - 431,8 mlrd.so`m, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-33,5%**



**Quyi texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi - 606,8 mlrd.so`m, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-47,1%**



O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 7,6 % ga, to`qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 10,5 % ga, terini qayta ishlash 1,2 % ga, qog`oz va qog`oz mahsulotlari ishlab chiqarish 22,9 % ga, kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish 20,6 % ga, mebel ishlab chiqarish 0,5 % ga, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 43,7 % ga, rezina va plastmassa buyumlari ishlab chiqarish 8,0 % ga oshganligini va ichimliklar ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

### **Yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

<b>2018 yilda ishlab chiqarilgan</b>	<b>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</b>	<b>2019 yilda ishlab chiqarilgan</b>	<b>O'sish sur`ati, foizda</b>
<b>Yumshoq bug`doy va spel`ta uni, ming t.</b>			
12,3		13,5	110,4
<b>Paxta tolasi, ming t.</b>			
9,6		10,2	105,8

**2018 yilda  
ishlab  
chiqarilgan**

**Ishlab chiqaradigan sanoat  
mahsulotlari**

**2019 yilda  
ishlab  
chiqarilgan**

**O'sish  
sur'ati,  
foizda**

**Narsa joylanadigan qoplar va paketlar, t.**

**53,1**



**69,3**

**130,4**

**Neft bitumi, ming t.**

**2,1**



**3,7**

**176,2**

**Amoniy nitrat, ming t. azot**

**11,0**



**15,5**

**141,0**

**Superfosfat ming t. P2O5**

**0,5**



**1,7**

**3,2 martta**

**Portlandsement, ming t.**

**43,9**



**62,0**

**141,2**

**Shisha idishlar, mln dona.**

**12,0**



**13,5**

**112,4**


## Elektr, gaz, bug` bilan ta`minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 57,5 mldr. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,4 % ni) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar oyida sanoatning mazkur tarmog'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 83,3 % ni tashkil etdi.



## Suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.



2019 yilning yanvar oyida sanoatning mazkur tarmog'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 75,8 % ni tashkil etdi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,4 mldr. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni) tashkil etdi.



## 2019 yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 326,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar oyiga nisbatan 9,1 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdag'i ulushi esa 25,3 % ni tashkil etdi.


### 2019 yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




## **Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Farg`ona shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 40,2 % ulushini), Qo`qon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 15,4% ulushini), Quvasoy shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 5,8% ulushini), Marg`ilon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 3,2% ulushini), Toshloq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 12,3% ulushini), Dang`ara tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 3,2% ulushini), O`zbekiston tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,5% ulushini), Quva tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 3,1% ulushini), Buvayda tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,5% ulushini), Beshariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,1% ulushini), Bog`dod tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,3% ulushini), Oltiariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,2% ulushini), Farg`ona tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,1% ulushini), Rishton tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,2% ulushini), Uchko`prik tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,4% ulushini), Qo`shtepa tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 0,8% ulushini), Yozyovon tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 0,7% ulushini), So`x tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 0,4% ulushini), Furqat tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 0,4% ulushini) hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**2019 yil yanvar oyida hududlar bo`yicha sanoat ishlab chiqarilishining ulushi,  
foizda**




**2019 yil yanvar oyida hududlar bo`yicha sanoat ishlab chiqarilishining hajmlari  
va viloyatdagi ulushi, %**



### Hududlarning iste`mol tovarlari ishlab chiqarishi.

Viloyat iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Farg`ona shahar 66,3 mlrd.so`m, Qo`qon shahar 55,1 mlrd.so`m, Quvasoy shahar 13,8 mlrd.so`m, Marg`ilon shahar 30,6 mlrd.so`m, Toshloq tumani 12,6 mlrd.so`m, Dang`ara tumani 10,6 mlrd.so`m, O`zbekiston tumani 13,6 mlrd.so`m, Quva tumani 19,5 mlrd.so`m, Buvayda tumani 7,5 mlrd.so`m, Beshariq tumani 14,9 mlrd.so`m, Bog`dod tumani 13,8 mlrd.so`m, Oltiariq tumanlari 12,3 mlrd.so`m, Farg`ona tumani 9,7 mlrd.so`m, Rishton tumani 13,5 mlrd.so`m, Yozyovon tumani 6,2 mlrd.so`m, Qo`shtepa tumani 7,8 mlrd.so`m, So`x tumani 4,1 mlrd.so`m, Uchko`prik tumani 9,1 mlrd.so`m, Furqat tumani 5,0 mlrd.so`mga, to`g`ri keldi.




**Farg`ona viloyatining 2019 yil yanvar oyida sanoat mahsulotlari hamda xalq iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi**

№	Shaharlar va tumanlar nomi	2019 yil yanvar sanoat ishlab chiqarilishi		2019 yil yanvar aholi jon boshiga	2019 yil yanvar xalq iste`mol tovarlari		2019 yil yanvar aholi jon boshiga
		mlrd.so`m	ulushi, %		ming.so`m	mlrd.so`m	
1	Oltiariq t.	15,6	1,2	76,0	12,3	3,8	60,0
2	Qo`shtepa t.	10,3	0,8	55,8	7,8	2,4	42,3
3	Bog`dod t.	30,0	2,3	144,6	13,8	4,2	66,5
4	Buvayda t.	19,4	1,5	88,0	7,5	2,3	34,2
5	Beshariq t.	27,7	2,1	125,3	14,9	4,6	67,1
6	Quva t.	40,2	3,1	160,4	19,5	6,0	78,0
7	Uchko`prik t.	18,6	1,4	84,4	9,1	2,8	41,1
8	Rishton t.	28,7	2,2	146,5	13,5	4,2	69,2
9	So`x t.	5,6	0,4	73,8	4,1	1,2	53,7
10	Toshloq t.	158,1	12,3	809,5	12,6	3,9	64,5
11	O`zbekiston t.	32,1	2,5	139,0	13,6	4,2	58,8
12	Farg`ona t.	14,4	1,1	69,6	9,7	3,0	47,1
13	Dang`ara t.	41,3	3,2	246,0	10,6	3,2	62,9
14	Furqat t.	4,9	0,4	42,9	5,0	1,5	43,8
15	Yozyovon t.	9,1	0,7	84,9	6,2	1,9	57,8
16	Farg`ona sh.	517,6	40,2	1841,4	66,3	20,3	235,8
17	Qo`qon sh.	199,1	15,4	805,6	55,1	16,9	223,1
18	Quvasoy sh.	74,7	5,8	821,3	13,8	4,2	152,3
19	Marg`ilon sh.	41,6	3,2	181,0	30,6	9,4	133,2
<b>Viloyat bo`yicha</b>		<b>1 288,8</b>	<b>100,0</b>	<b>352,9</b>	<b>326,0</b>	<b>100,0</b>	<b>89,3</b>

## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 18,8 % tashkil etmoqda.

**2019 yilning yanvar oyida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %**




## Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 6472 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1231 tasi Qo`qon shahri, 851 tasi Marg`ilon shahri, 819 tasi Farg`ona shahri, 467 tasi Uchko`prik tumani, 401 tasi O`zbekiston tumani, 336 tasi Dang`ara tumani, 305 tasi Buvayda tumani, 250 tasi Toshloq tumani, 247 tasi Quva tumani, 208 tasi Bog`dod tumani, 214 tasi Oltiariq tumani, 178 tasi Qo`shtepa tumani, 181 tasi Rishton tumani, 159 tasi Farg`ona tumani, 159 tasi Quvasoy shahri, 122 tasi Yozyovon tumani, 121 tasi Furqat tumani, 115 tasi Beshariq tumani, 108 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

Joriy yilning yanvar oyida viloyatda 231 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 32 tasi Qo`qon shahri, 28 tasi Marg`ilon shahri, 22 tasi Farg`ona shahri, 21 tasi Uchko`prik tumani, 12 tasi O`zbekiston tumani, 8 tasi Dang`ara tumani, 10 tasi Buvayda tumani, 12 tasi Toshloq tumani, 23 tasi Quva tumani, 10 tasi Bog`dod tumani, 10 tasi Oltiariq tumani, 5 tasi Qo`shtepa tumani, 14 tasi Rishton tumani, 4 tasi Farg`ona tumani, 10 tasi Quvasoy shahri, 2 tasi Yozyovon tumani, 1 tasi Furqat tumani, 4 tasi Beshariq tumani, 3 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

*Farg`ona viloyatida faoliyat ko`rsatayotgan hamda yanvar oyi davomida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda*



**Farg`ona viloyat statistika boshqarmasining  
Sanoat statistikasi bo`limi**

Nashr uchun mas'ul:

Aloqa telefoni:

F.Yakubov

(0371) 230-87-19